

GIYOHVANDLIK - ASR VABOSI**To‘ychiboyeva Ma’mura Ruvojiddin qizi**

Namangan viloyati To‘rao‘rg‘on tuman MMTBga

qarashli 33-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlik hodisasi, uning kelib chiqish sabablari, inson organizmiga salbiy ta’siri hamda jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik oqibatlari yoritilgan. Giyohvandlik bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Maqolada, shuningdek, yurtimizda giyohvandlikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud huquqiy asoslar va profilaktik tadbirlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, narkomaniya, morfin, xulq-atvor, zaharli moddalar, psixotrop moddalar, noqonuniy aylanish, salbiy oqibatlar, tobelik.

Giyohvandlik — bu turli xil narkotik o‘simliklardan olingan yoki sun’iy yo‘l bilan yaratilgan kimyoviy moddalarning ta’sirida insonning ularga ruhiy va jismoniy jihatdan tobelik holatiga tushib qolishi natijasida yuzaga keladigan surunkali kasallikdir.

Giyohvandlikning xalqaro atamasi “narkomaniya” bo‘lib, yunoncha “narke” — “karaxtlik” va “mania” — “aqldan ozish” degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu holat narkotik moddalarning inson organizmiga kuchli ta’siri natijasida yuzaga keladi: odamda hushning yo‘qolishi, aqliy faoliyatning susayishi, kayf holati, harakatsizlik va turli ruhiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Giyohvandlik inson organizmining somatik (jismoniy) va psixik (ruhiy) holatida chuqur o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi shaxsda ularga nisbatan tobora ortib boruvchi ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu ehtiyoj vaqt o‘tishi bilan jismoniy va ruhiy bog‘liqlik darajasiga yetadi va inson o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan holatga

tushadi. Giyohvandlik odatda sekin-asta rivojlanadi va surunkali shaklga o'tadi. Dastlab narkotik moddalar xushnudlik, xotirjamlik va lazatlanish hissini uyg'otgandek tuyuladi, biroq vaqt o'tishi bilan bu holat kasallikka aylanib, shaxsiy tanazzul, ijtimoiy yakkalanish va sog'lik muammolariga olib keladi.

Giyohvandlik — zamonamizning dolzarb muammosi

Giyohvandlik — 21-asrning eng jiddiy global muammolaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga tahdid solgan vabo, o'lat kabi kasalliklar bugungi kunda giyohvandlik balosiga o'rin bo'shatgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda bu illat dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda va inson salomatligi, jamiyat barqarorligi uchun katta xavf tug'dirmoqda.

Giyohvandlik — bu insonni tobora jarlikka olib boruvchi, ruhiy va jismoniy tanazzulga sabab bo'ladigan og'ir ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Odamning bu illatga ruju qo'yishi yoki unga o'rganib qolishining sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'smirlik davrida ota-onaning farzandlarga yetarli darajada e'tibor qaratmasligi, oiladagi muammolar, tushkunlik holatlari, e'tiborsizlik, psixologik bosim kabi omillar o'smirni noto'g'ri yo'lga, ya'ni giyohvandlikka yetaklashi mumkin. Afsuski, ayrim yoshlar o'z muammolariga to'g'ri yechim topa olmasdan, narkotik moddalarni muqobil yo'l sifatida ko'rishadi va ko'r-ko'rona ularga o'rganib qolishadi. Yurtimizda ushbu muammoning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har yili 26-iyun sanasi "Giyohvandlikka qarshi kurashish kuni" sifatida nishonlanadi. Bu sana yosh avlodni hushyorlikka, sog'lom hayot tarzini tanlashga da'vat etuvchi muhim tadbirlar orqali yodda qoldiriladi.

Giyohvandlikning bosqichlari

Giyohvandlik odatda uch bosqichda rivojlanadi:

1-bosqich — *Boshlang'ich bosqich*: Inson narkotik moddasini birinchi marta iste'mol qilganidan so'ng, organizm bu moddaning ta'siriga asta-sekin ko'nikishni

boshlaydi. Bu davrda odamda muayyan vaqtlarda narkotik moddani qayta-qayta qabul qilish istagi paydo bo'ladi. Bu esa ruhiy bog'liqlikning boshlanishidan darak beradi.

2-bosqich — Ruhiy bog'liqlik bosqichi: Ikkinchi bosqichda inson organizmi nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham narkotik moddalarga moslasha boshlaydi. Bu davrda shaxsda narkotik moddalarga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, ularni doimiy ravishda iste'mol qilishga intilish ortadi. Kayfiyatning keskin o'zgaruvchanligi, hissiy beqarorlik, asabiylashish, tushkunlik holatlari tez-tez kuzatiladi. Giyohvand odam bu bosqichda moddani qabul qilmasa, bezovtalik, qo'rquv, jizzaki holatlar yuzaga keladi. Shu sababli u doimiy ravishda narkotik moddalarni iste'mol qilishga intiladi.

3-bosqich — Jismoniy bog'liqlik va tanazzul bosqichi: Uchinchi bosqichda insonda narkotik moddalarga nisbatan kuchli jismoniy bog'liqlik yuzaga keladi. Endilikda faqat ruhiy emas, balki jismoniy tomondan ham moddasiz yashay olmaydi. Shaxs narkotik modda ta'sirida yashashga to'liq ko'nikib qoladi va u holda hayotini tasavvur qila olmaydi. Bu bosqichda narkotik moddani topish uchun bemor ko'pincha oilasi, yaqinlari, hatto insoniy qadriyatlardan voz kechishga tayyor bo'ladi. Afsuski, bu bosqichda u yaqinlariga zarar yetkazish, jismoniy tazyiq o'tkazish, jinoyat sodir etish darajasiga yetib boradi.

Giyohvand moddalarni uzoq muddat iste'mol qilish oqibatida sog'liq jiddiy ravishda yomonlashadi. O'pka, yurak, jigar, me'da-ichak tizimi, markaziy asab tizimi va miya faoliyatida turli surunkali kasalliklar rivojlanadi. Bunday bemorlar odatda maxsus giyohvandlikka qarshi kurashadigan muassasalarga yuboriladi va malakali mutaxassislar nazorati ostida davolanishadi.

Giyohvandlik va deviant xulq-atvor: sotsiologik, psixologik va tibbiy yondashuvlar

Umumiy ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari deviant xatti-harakatlar deb ataladi. Giyohvandlik ham deviant xulq-atvorning bir ko'rinishi bo'lib, bu holat nafaqat moddalarga qaramlik sifatida, balki jamiyatda muayyan xavf tug'diruvchi

xatti-harakat sifatida baholanadi. Ayniqsa, narkotik moddalar ta'sirida bo'lgan shaxslar boshqalarga jismoniy tahdid solishi, ijtimoiy muhitda beqarorlik keltirib chiqarishi mumkin.

Deviant xatti-harakatlarga turli fanlar vakillari o'z nuqtai nazaridan yondashadilar:

✓ **Sotsiologik nuqtai nazardan**, deviant xatti-harakatlar jamiyatda omon qolish va ijtimoiy integratsiyani xavf ostiga qo'yadigan omil sifatida ko'riladi. Bunday holatda shaxsning axloqiy qadriyatlar tizimiga moslasha olmasligi, ijtimoiy me'yorlarni anglab yetish jarayonining buzilishi va ijtimoiy muhit bilan ziddiyatli munosabatda bo'lishi muhim o'rin tutadi.

✓ **Tibbiyot nuqtai nazaridan**, bu turdagi xatti-harakatlar neyropsixik buzilishlar natijasi sifatida yuzaga kelishi mumkin. Giyohvandlik inson ruhiy salomatligining izdan chiqishiga olib keladi, bu esa ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishning pasayishiga sabab bo'ladi.

✓ **Psixologik yondashuvga ko'ra**, deviant xatti-harakatlar shaxsning ichki muammolarini ijtimoiy jihatdan yaroqsiz, ya'ni antisosial yo'llar bilan hal qilishga urinishi sifatida ko'riladi. Bunday shaxslar ko'pincha jamiyat va o'z farovonligiga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarga moyil bo'ladilar.

Sotsiolog Robert Mertonning nazariyasiga ko'ra, deviantlik ma'lum bir madaniyatda qabul qilingan maqsadlar bilan ularga erishishning ijtimoiy maqbul usullari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqadi. Masalan, jamiyatda moliyaviy muvaffaqiyat asosiy maqsad sifatida ilgari surilsa-da, unga erishish imkoniyatlari har doim ham teng taqsimlanmagan. Shuning uchun ayrim shaxslar maqsadga erishishning noqonuniy yo'llarini (masalan, narkotik modda savdosi) tanlashi mumkin.

Giyohvandlik ko'pincha psixologik bog'liqlik orqali shakllanadi. Ayniqsa, yoshlarda bu holat o'ziga ishonchsizlik, mehr-e'tibor yetishmasligi, ruhiy bo'shliq yoki tushkunlik hissi bilan bog'liq bo'ladi. Bu shaxslar ko'pincha ichki bo'shliqni narkotik

moddalarga murojaat qilish orqali to'ldirishga harakat qiladilar. Ular o'zlarini befoyda, sevimligan yoki jamiyatga kerak emasdek his qilishlari mumkin. Giyohvandlikka olib keluvchi muhim omillardan yana biri — **bolalikdagi salbiy tajribalar**. Doimiy tanqid, ayblov, e'tiborsizlik va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi natijasida bola o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Bunday shaxslar hayotda maqsad qo'yish va unga erishishga ishtiyoqsiz bo'lib qoladi. Ular jamiyatda o'z o'rnini topolmasdan, o'zini yomon ko'ra boshlaydi va deviant yo'llarni tanlashi mumkin.

Deviant xulq-atvorning diagnostikasi murakkab, ko'p bosqichli va mutaxassislar ishtirokida olib borilishi lozim bo'lgan jarayondir. Uning erta aniqlanishi va to'g'ri yo'lga yo'naltirilishi shaxsiy hayotda, kasbiy faoliyatda va jamiyatda o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini oshiradi. Eng muhimi, yoshlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik, tushunish va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ularning orzularini buzmaslik, o'zlariga va kelajakka bo'lgan ishonchini yo'qotmaslik uchun sog'lom muhit yaratish — barchamizning vazifamizdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurash kompleks yondashuvni talab etadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy choralar, shuningdek, alkogolizmga qarshi kurashishda qo'llanilgan usullar ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq, giyohvandlikning o'ziga xos rivojlanish mexanizmlarini, ya'ni psixologik va fiziologik bog'liqlik, ijtimoiy muhit ta'siri va shaxsiy muammolarni inobatga olgan holda, bu illatga qarshi kurashish uchun maxsus, maqsadli choralar zarur. Bunday choralar qatoriga **tibbiy reabilitatsiya, psixologik yordam, huquqiy nazorat, profilaktika ishlari** va **ijtimoiy adaptatsiya dasturlari** kiradi. Faqatgina barcha tizimlarning uzviy hamkorligi orqaligina jamiyatda giyohvandlikka qarshi samarali kurash olib borish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Первичная профилактика наркомании в молодежной среде на основе формирования физической культуры личности тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.04, кандидат педагогических наук Антипов, Вячеслав Александрович.
2. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
3. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
4. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
5. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
6. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
7. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.